

**JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA USHLAB TURISH
CHORASI. O‘ZBEKISTON VA ITALIYA TAJRIBASI**

Muallif: Abdumurodov Azizbek Yusuf o‘g‘li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti talabasi.
Telefon raqami: +998979852110
E-mail: abdumurodovazizbek2110@gmail.com

Annotatsiya: Inson huquqlari haqida gap ketganda, bizga uning daxlsizligi birinchi o‘rinda hayolizmizga keladi. Ushlab turish chorasi esa aynan ushbu huquqning bir cheklanishi desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ushlab turish doimo qonuniy va asoslangan bo‘lishi kerak. Kodeks va qonunchilikda belgilangan muddatlar va tartibga rioya qilinishi ham zarur. Huquqiy tilda bu Habeas Korpus deb ataladi, ya’ni ushlab turishning qonuniyligi va shaxslarning huquqlarini ta’minlash. Konstitutsiyamizning 27-moddasiga ko‘ra sudning qarorisiz ushlab turish 48 soatdan oshishi mumkin emas¹, shuningdek uning huquqlari va ushlab turish asoslari tushunarli tilda tushuntirilishi kerak. Italiyaga e’tibor beradigan bo‘lask, uning tizimi ham bizniki kabi roman-german va jinoyat protsessi asosan kodeks orqali tartibga solinadi. Albatta, Italiya jinoyat protsessual qonunchiligi, boshqa sohalar kabi biznikidan ancha rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Jinoyat protsessual kodeksi, Habeas Korpus, 48 soat, tergov sudyasi, ushlab turish, Miranda qoidasi, majburiy va ixtiyoriy ushlab turish, 96 soat, himoyachi yordamidan foydalanish,

Ushlab turish tushunchasi va huquqiy asos. O‘zbekistonda ushlab turish **JPK 27-bobi** bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Jinoyat protsessual kodeksining **220-moddasiga**² muvofiq, ushlab turish bu jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni **qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan** iborat bo‘lgan protsessual majburlov chorasidir. U shaxsning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. Ushlab turishning o‘ziga xos jihati kechiktirob bo‘lmaydigan holatlarda sudning qarorisiz tegishli vakolatli organlar tomonidan, bularga Ichki ishlar organlari, prokuratura kabilar, amalga oshirilishi mumkin. **JPK 221-modda**³ siga ko‘ra ushlab turishning **4 ta asosi** mavjud. Bular

¹ O‘zbekiston Konstitutsiyasi 27-moddasi: <https://lex.uz/docs/-6445145#:~:text=o%CA%BBtkazilishi%20mumkin%20emas,-,27%2Dmodda,-Har%20kim%20erkinlik>

² O‘zbekiston JPK 220-moddasi: <https://lex.uz/docs/-111460#-254606:~:text=bob.%20USHLAB%20TURISH-.220%2Dmodda.%20U>

³ O‘zbekiston JPK 221-moddasi: [https://lex.uz/docs/-111460#-254606:~:text=son%2C%20433%2Dmodda\)-.221%2Dmodda,-Ushlab%20turish%20asoslari](https://lex.uz/docs/-111460#-254606:~:text=son%2C%20433%2Dmodda)-.221%2Dmodda,-Ushlab%20turish%20asoslari)

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar
- 3) uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Italiya JPKning 380 va 381-moddalarid⁴a tartibga solingan ushbu chora O‘zbekiston JPK 221-moddasiga aynan mos keladi. Ushlab turish faqat shaxs jinoyatni bevosita amalga oshirayotgan vaqtda yoki jinoyat sodir etganidan so‘ng darhol, ya‘ni buyumlar va izlar bilan qo‘lga tushganda qo‘llaniladi. Italiya qonunchiligi ushlab turish ikkiga bo‘linadi:

Majburiy: O‘ta og‘ir jinoyatlar, bularga qotillik, qurolli bosqinchilik kabilar kiradi, sodir etilganda politsiya shaxsni ushlab turishga majbur.

Ixtiyoriy: Unchalik og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarda politsiya vaziyatning xavflilik darajasini baholab, ushlab turish yoki turmaslikni o‘zi hal qiladi.

Italiya JPKning 384-moddasida gumonlanuvchini ushlab turish asoslari tartibga solinadi. Unga ko‘ra shaxs jinoyat ustida ushlanmagan, lekin uning og‘ir jinoyatga aloqadorligini tasdiqlovchi kuchli gumonlar (dalillar) mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Ushlab turish qo‘llanilishi uchun **qochib ketishning real xavfi** mavjud bo‘lishi shart.⁵ Bu chorani faqat Prokuror qo‘llashga haqli. Faqatgina o‘ta kechiktirib bo‘lmaydigan va prokurorga xabar berishning imkoni bo‘lmagan istisno holatlardagina sud politsiyasi buni mustaqil amalga oshirishi mumkin.

Ushlab turish muddati. O‘zbekiston **JPKning 226-moddasiga** binoan, ushlab turish muddati shaxs **amalda ushlangan paytdan**, ya‘ni uning erkin harakatlanishga bo‘lgan huquqi haqiqatda cheklangan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Qonunchiligimizda ushbu muddat qat’iy ravishda **48 soat** qilib belgilangan.

Ushbu 48 soat ichida tergovga qadar tekshiruv organi, surishtiruvchi yoki **tergovchi quyidagi harakatlarni** amalga oshirishi shart:

Shaxsni ushlab turish asosligini tekshirish

Yetarli asoslar mavjud bo‘lsa ayblov e‘lon qilish

Qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash zarurati bo‘lsa, iltimosnoma qo‘zg‘atish orqali prokurorga, prokuror esa o‘z tasdig‘i bilan sudga murojaat qilishi kerak.

Ushlab turish muddati tugaguncha, ya‘ni JPK 243-moddasiga ko‘ra iltimosnoma tushgach 8 soat ichida, shaxsga nisbatan qamoqqa olish, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot

⁴ Italiya JPK 381-modda: <https://canestrinilex.com/assets/Uploads/pdf/cf70b10e21/Italian-Code-of-Criminal->

⁵ Italiya JPK 384-modda: <https://canestrinilex.com/assets/Procedure-canestriniLex.pdf>

chorasi sud tomonidan qo'llanilishi mumkin. Shunigdek, garov ehtiyot chorasi ham qo'llanilishi mumkin. Keyingi **10 kun ichida** esa shxasga nisbatan aylov e'lon qilinishi kerak, aks holda belgilangan ehtiyot chorasi bekor qilinishi va shaxs ozod qilinishi kerak. Huquqni muhofaza qiluvchi organning xodimi amalga oshirilgan ushlab turish haqida **o'n ikki soat ichida prokurorga** yozma shaklda xabar berishi shart. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin. Demak, O'zbekistonda shaxs sud sanksiyasiz ko'pi bilan 48 soat, sud qarori bilan ehtiyot chorasi tanlangunga qadar **jami 96 soat** vaqtinchalik saqlash hibsonasida ushlab turilishi mumkin.

Italiya JPKda ushlab turishda muddat masalasida maxsus tizim mavjud. Unga ko'ra umumiy ushlab turish muddati bosqichlarga bo'lingan bo'linadi, u Italiya huquqshunosligida **96 soat qoidasi** deb atalarkan (24+24+48) deb yuritiladi. Ushlab turilgan shaxs 96 soat ichida sudyaning qarshisida majlisda ishtirok etishi majburiy shart ekan, aks holda suhlab turish to'liq bekor qilinadi.

Italiya JPK 386-moddasiga ko'ra, sud politsiyasi shaxsni ushlagan paytdan boshlab eng kechi bilan **24 soat ichida bu haqida Prokurorga xabar** berishi va ushlangan shaxsni uning ixtiyoriga, ya'ni qamoqxonaga yoki uy qamog'iga, topshirishi shart. Agar bu muddat birozga bo'lsa kechiksa ham, ushlab turish o'z kuchini yo'qotadi. Prokuror politsiyadan materiallarni olgach, ushlab turish shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab **48 soat ichida Dastlabki tergov sudyasiga** ushlab turishni tasdiqlash so'rovi bilan murojaat qilishi shart (**JPK 390-modda**). Sudya prokurorning so'rovini olgan paytdan boshlab **48 soat ichida ushu maxsus majlisi** o'tkazishi shart. Ushbu majlisda prokuror, ushlangan shaxs va uning advokati majburiy tartibda ishtirok etadi.

Dastlabki tergov sudyasi majlisda bitta emas, ikkita alohida masalani hal qiladi:

Birinchi o'rinda o'tgan harakatlarni baholaydi, ya'ni sudya politsiyaning shaxsni ushlab turish bo'yicha harakatlari qonuniy bo'lganmi yoki yo'qmi shuni tekshiradi. Agar politsiya asoslarni yoki muddatlarni buzgan bo'lsa, sudya ehtiyot chorasiga o'tmasdan, shaxsni darhol ozod qiladi.

Keyin esa agar ushlab turish qonuniy deb topilsagina, sudya prokurorning ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomasini ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Ushlab turilganlarning huquqlari. Shaxsni ushlab turish jarayonida faqatgina muddatlarga rioya qilishning o'zi yetarli emas. Qonuniylikning eng muhim sharti ushlab turilgan shaxsga uning qonunda belgilangan barcha huquqlari va kafolatlar ta'minlab berilishi shart hisoblanadi.. O'zbekiston va Italiya qonunchiligida bu kafolatlar aniq qilib belgilangan.

Shaxs erkinligi cheklangan ilk soniyalardan **nima sababdan ushlangani** va qanday **huquqlarga** ega ekanligini bilishi shart. Bu xalqaro huquqning fundamental

qoidasidir.

O‘zbekiston **Konstitutsiyasi 27**-moddasi hamda **JPKning 224**-moddasiga ko‘ra, ushlab turishni amalga oshirayotgan xodim shaxsga uning nima sababdan ushlanganligini tushuntirishi, shuningdek, telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish, **advokatga** murojaat qilish, ko‘rsatuv berishdan bosh tortish, ya‘ni **sukut saqlash**, huquqiga ega ekanligini hamda u bergan ko‘rsatuvlar jinoyat ishi bo‘yicha unga qarshi dalil sifatida foydalanilishi mumkinligini o‘z ichiga olgan **Miranda qoidasini** og‘zaki tarzda tushuntirishi shart⁶. Bu jarayon bayonnomada yoki videoyozuvda qayd etiladi.

Italiya JPKning 386-moddasiga binoan, politsiya nafaqat huquqlarni og‘zaki tushuntirishi, balki ushlangan shaxsga maxsus **Huquqlar yozilgan xatni** yozma ravishda topshirishi shart. Ushbu hujjatning o‘ziga xosligi shundaki:

U shaxs tushunadigan tilda beriladi

Unda nafaqat sukut saqlash va advokat yollash huquqi, balki tibbiy yordam olish, konsulxona bilan bog‘lanish va ushlab turish ustidan qanday qilib sudga shikoyat qilish mumkinligi batafsil yozilgan bo‘ladi⁷

Agar politsiya ushbu yozma hujjatni taqdim etmasa, dastlabki tergov sudyasi majlisida ushlab turishni qonunga xilof deb topishi va shaxsni ozod qilishi mumkin.

O‘zbekiston **JPKning 48**-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi ushlangan paytdan boshlab **advokat xizmatidan foydalanish** hamda u bilan **xoli uchrashish** huquqiga ega. Advokat asosan shaxs birinchi marta so‘roq qilinishidan oldin ishga qo‘shiladi va ushlab turish bayonnomasi tuzilishida o‘z e‘tirozlarini kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Italiya JPKning 104-moddasiga asosan, ushlangan shaxs darhol o‘zi tanlagan himoyachi yoki davlat tomonidan tayinlangan himoyachi bilan uchrashish huquqiga ega. Italiya tizimidagi eng katta farqlardan biri advokatning vakolatlarida desak bo‘ladi. Italiyada advokat ushlab turish bosqichining o‘zidayoq himoya uchun tekshiruvni boshlashi mumkin. Ya‘ni advokat politsiya va prokurorning dalillariga qarshi o‘zining mustaqil dalillarini to‘plab, 48 soat ichida bo‘lib o‘tadigan sud majlisida taqdim etishi mumkin. O‘zbekistonda esa advokat asosan tergov organining harakatlari ustidan shikoyat qilish va ehtiyot chorasi qo‘llanilayotganda o‘z munosabatini bildirish bilan cheklanadi.

Takliflar. O‘zbekiston JPK 224-moddasida **huquqlar og‘zaki tushuntirilishi** belgilangan, biroq shaxs stress holatida yoki boshqacha, ya‘ni odamni politsiya olib ketayotganda u o‘zini normal his qilmasligi tayin holat, hollarda barcha huquqlarini, masalan advokat bilan bog‘lanish yoki sukut saqlash, **to‘liq anglab yetmasligi mumkin**. Italiya JPKning 386-moddasiga binoan, har bir ushlangan shaxsga **Huquqlari tushuntirilgan xat** topshirilishi shart. Ushbu hujjatda shaxsning barcha

⁶Legal information institute rasmiy sayti: https://www.law.cornell.edu/wex/miranda_rule

⁷ Italiya JPK 386-modda: <https://canestrinilex.com/assets/Uploads/-Procedure-canestriniLex.pdf>

protsessual imkoniyatlari yozma shaklda, sodda tilda bayon etilgan. Agar ushbu xat berilmasa, Italiya sudi ushlab turishni qonunga xilof deb topib, shaxsni darhol ozod qilishi mumkin. Shuning uchun bizda ham Italiyadagi kabi JPKga shaxs ushlangan paytda unga barcha huquqlari yozma ravishda bayon etilgan, u tushunadigan tildagi Huquqlar xatini topshirish majburiyatini kiritish kerak deb o'ylayman. Bu hujjat shaxsning qo'lida qolishi va uning huquqlari himoyasini kafolatlashi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston JPK 221-moddasida **ushlab turish asoslari** barcha jinoyatlar uchun bir xil ko'rsatilgan. **Italiya JPK 380 va 381**-moddalari ushlab turishni **ikki guruhga** ajratadi

Majburiy: Qotillik, qurolli bosqinchilik, terrorizm kabi og'ir jinoyatlarda politsiya shaxsni ushlashga majbur.

Ixtiyoriy: Kamroq ijtimoiy xavfli jinoyatlarda politsiya shaxsning o'tmishi va qochish xavfini hisobga olib uni ushlab turish yoki turmaslikni o'zi hal qiladi.

Bu tizimni bizga olib kelish orqali vaqtinchalik saqlash hibsonalarining to'lib ketishi oldi olinadi va insonparvarlik, aybsizlik prezumpsiyasi va shaxsiy daxlsizlik kabi prinsiplar ta'minlanishi kuchayadi degan fikrdaman. **Ixtiyoriy ushlashda** jinoyatning xususiyati va yetkazilgan zararning miqdori, shaxsning o'tmishi, ya'ni muqaddam sudlanganligi, va xulq-atvori, uning qochib ketish xavfining mavjudligiga e'tibor berilsa to'g'ri bo'ladi.

Italiya tizimi ancha rivojlanganligini ko'rdik, ammo unda ham mening fikrimcha bir qancha kamchiliklar bor va ular bizning tizimdan olishi mumkin bo'lgan jihatlar bor deb o'ylayman.

Xulosa. Ushlab turish ikkala davlatda ham shaxslarning yangi jinoyat sodir etishini oldini olish, dalillarni yo'q qilishini oldini olishga qaratilgan inson huquqlari daxlsizligini cheklovchi chora desak bo'ladi. Umumiy jihatdan tizimlar juda o'xshash, ammo bir qancha farqlarni ko'rishimiz mumkin. Huquqlar va ularning kafolatlarida ikkala davlatda ham ular ta'minlanadi. Sukut saqlash va advokatdan foydalanish eng muhim huquqlarda, ammo farq shundaki bizda barchasi og'zaki tushuntirilsa, Italiya yozma xat berilishi majburiy hisoblanadi. Muddatlar ham umumiy bir hil, ammo organlar qancha muddatda ishni bajarishida farq qiladi. Bizda xodim 12 soat ichida prokurorga xabar berishi, sud esa muddat tugaguncha ishni ko'rib chiqishi kerak. Italiyada esa o'zining 96 soat qoidasi mavjud. O'zbekiston Italiya tajribasidagi ushlab turish asoslarining ixtiyoriy va majburiy turlarga bo'linishidan va ushlab turilgan shaxsga yozma huquqlar tushuntirilgan xati berilishi shart ekanligini o'z tizimga kiritishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston jinoyat protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460#-4817016>
3. Italiya Jinoyat protsessual kodeksi. <https://uploads/pdf/cf70b10e21/Procedure-canestriniLex.pdf>
4. Jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari. Inog‘omjonova Z.F, To‘laganova G.Z. 2006 Toshkent. P 25-45 https://d/d/1_DGWeGQqPCfKWn/view
5. Legal information institute rasmiy sayti. https://aw.cornell.edu/miranda_rule